**“Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yiğilishining 37 - sonli bayonidan koʻchirma**

2021 yil “20” sentyabr Toshkent sh.
Shahrisabz ko’chasi, 30-uy

“Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yiğilishi internet orqali onlayn rejimda, masofadan turib yiğilishni olib borish imkonini beruvchi “eVOTE” – elektron ovoz berish xizmati (http://evote.uz/) vositasida oʻtkazildi, shuningdek bank aksiyadorlari Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakili N.N. Nuritdinova (telekommunikasion aloqa vositalari orqali) hamda Oʻzbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiët jamğarmasi vakili D.K. Ibragimov “Ipoteka-bank” ATIB Bosh ofisining majlislar zalida bevosita ishtirokida, soat $11^{00}$ dan boshlab amalga oshirildi.

Yiğilishda bevosita bank binosida ishtirok etgan aksiyadorlarni inobatga olgan holda, yiğilishni oʻtkazish operatori elektron platformasida shakllangan hisobot boʻyicha, “Ipoteka-bank” ATIB aksiyadorlarining reestriga koʻra, 2021 yil 14 sentyabr holatiga umumiy yiğilishda ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan aksiyadorlar roʻyxatiga jami 2’984’152’021’938 dona oddiy aksiyalar egasi boʻlgan 13558 ta aksiyador kiritilgan. Aksiyadorlar roʻyxatining toʻğri rasmiylashtirilganligi va aksiyadorlar nomidan umumiy yiğilishda ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan vakillarning vakolatlari tasdiqlandi. Tlektron hisobotga asosan yiğilishda ishtirok etish uchun umumiy ovoz beruvchi 2’842’766’426’532 dona aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyador va aksiyadorlarning vakillari (547’783’424’719 dona ovoz masofadan turib, 2’294’983’001’813 dona ovoz bevosita ishtirok etgan holda) roʻyxatdan oʻtganligi va umumiy yiğilish vakolatli ekanligi, ya'ni kvorum mavjudligi ma'lum boʻldi.

**Yiğilish kvorumi: 95,26 %.**

Aksiyadorlarning masofaviy umumiy yiğilishi ishchi organlari One ID yagona identifikasi tizimi orqali belgilangan tartibda identifikasiyalandi va yiğilishni oʻtkazish operatorining elektron platformasidan roʻyxatdan oʻtkazilib, quyidagi tarkibda tuzildi.

**Yiğilish kotibi:** Baxodir Ibragimovich Merganov

**Sanoq komissiyasi a'zolari:** Hilola Rustamovna Malikova
Olga Alekssevna Shakarimova
Timur Sadritdinovich Muxitdinov

**Kun tartibidagi masalalar:**

1. “Ipoteka-bank” ATIB tashkiliy tuzilmasiga oʻzgartirish kiritishni tasdiqlash.
2. “Ipoteka-bank” ATIB Kuzatuv kengashi a'zolariga toʻlanadigan rağbatlantirish va kompensasiyalar toʻğrisidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash.

---------------------------------------------------------------------------------------------------------

**1. Kun tartibidagi birinchi masala –** “Ipoteka-bank” ATIB tashkiliy tuzilmasiga oʻzgartirish kiritishni tasdiqlash.

**Kun tartibidagi birinchi masala ovozga qoʻyildi:**

| | | |
|---|---|---|
| **Tarafdor 2’842’766’426’532 (100%)** | **Qarshi 0 (0%)** | **Betaraf 0 (0%)** |

**2. Kun tartibidagi ikkinchi masala –** “Ipoteka-bank” ATIB Kuzatuv kengashi a'zolariga toʻlanadigan rağbatlantirish va kompensasiyalar toğrisidagi nizomni yangi tahrirda tasdiqlash.

**Kun tartibidagi ikkinchi masala ovozga qoʻyildi:**

| Tarafdor 2’842’766’426’532 (100%) | Qarshi 0 (0%) | Betaraf 0 (0%) |
|---|---|---|

Yuqorida baёn etilgan kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yiğilishi

**Qaror qildi:**

1. “Ipoteka-bank” ATIB tashkiliy tuzilmasiga ozgartirish kiritish tasdiqlansin.

2. “Ipoteka-bank” ATIB Kuzatuv kengashi a'zolariga toʻlanadigan rağbatlantirish va kompensasiyalar toğrisidagi nizom yangi tahrirda tasdiqlansin.

“Ipoteka-bank” ATIB Kuzatuv kengashi a'zolariga toʻlanadigan rağbatlantirish va kompensasiyalar toğrisidagi nizom 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab amalga kiritilsin hamda bank Kuzatuv kengashi tarkibidagi davlat organlari vakillariga mazkur Nizomga muvofiq rağbatlantirish mexanizmi joriy yilning uchinchi choragi natijalari boʻyicha qoʻllanilsin.

**Yiğilish kotibi** imzo **B. Merganov**

*Ushbu baёn 2021 yil 21 sentyabrda ikki nusxada tuzildi.*